



**МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТИЗИМИДА ТА'ЛИМ-ТАРБИЯНИНГ
КОНПЕТЕНСИЯЛАРИНИ ЙАХОН ТАЖРИБАСИ АСОСИДА
ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАРДА ШАКЛЛАНТИРИШ**

Qoraqalpog'iston Respublikasi

Qo'ng'irot tuman 22-sون DMTT

direktori Tleumuratova Nesibeli Aytmuratovna

Annatatsiya: ushbu maqolada ta'lim tarbiya jarayoni, ta'lim tarbiyaning prinsiplari va konpitensiyalarini jahon tajribasini o'rgangan holda tashkil etish va ta'lim tarbiyani jahon tajribasi asosida shakillantrish haqida aytib o'tilgan.

Аннотация: В данной статье говорится о процессе образования, принципах и компетенциях образования на основе мирового опыта, а также формировании образования на основе мирового опыта.

Abstract: In this article, it is mentioned about the process of education, principles and competences of education based on world experience, and formation of education based on world experience..

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, tajriba, prinsip, tarbiyaviy konpitensiya, jahon tajribasi, milliy ruhda tarbiyalash.

Ключевые слова: образование, воспитание, опыт, принцип, образовательная компетентность, мировой опыт, воспитание в национальном духе.

Key words: education, upbringing, experience, principle, educational competence, world experience, education in the national spirit.

Tarbiya ishlarini tashkil etishning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:
- maqsadning aniq mezonlarda ifodalanishi; - faoliyat maqsadini amalga oshirishda xizmat qilishi; - bolalar tarbiyasidagi faoliyatni o'qituvchi, ota – ona va jamoa bilan hamkorlikda boshqaruvni ta'minlash muhimdir. Tarbiya ishlarini tashkil qilish va



uning salohiyatini oshirish bola qalbida insoniy fazilatlarni singdirish ko‘p jihatdan tarbiyachi-tarbiyalanuvchilarining ijodiy faoliyatini tashkil etishga bog‘liq. Ular quyidagi omillarni qo‘llash asosida vujudga keladi: - Tarbiya jarayonini tashkil qilishdagi munosabatlar. Bunda tarbiyalanuvchilarning kundalik hayotiy voqyealari jamoadagi tartib qoida va xulqatvorlar haqidagi motivlar va ularga bir butun yondoshuv kabilardir; - Tarbiya ishlarining maqsadi, aniqligi va ta’sirchanligi. Tarbiyaviy jarayonni loyihalashtirish, shakl, metod, shart – sharoitlarni oldindan aniqlab qo‘yilgan maqsadga muvofiqlashtirish; - Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o‘zaro munosabatlari.

Jahon tajribasi asosidagi kompetensiyalar

Jahon ta’lim tizimida mактабгача та’лим tarbiyalanuvchilarida rivojlantiriladigan asosiy kompetensiyalar quyidagilardan iborat:

- **Kommunikativ kompetensiya:** Bolalarning o‘z fikrlarini to‘g‘ri ifodalash, muloqotda ochiq bo‘lish va boshqa madaniyatlarni tushunish qobiliyatini rivojlantirish.
- **Ijodiy kompetensiya:** Bolalar fantaziyasi, ijodkorligi va san’atga bo‘lgan qiziqishini oshirish.
- **Jamoada ishslash ko‘nikmasi:** Birgalikda ishslash, muvofiqlikni ta’minlash va boshqalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlik.
- **Muammolarni hal qilish kompetensiyasi:** Bolalarning tanqidiy fikrashi va hayotiy muammolarni yechishda mantiqiy yondashuvni rivojlantirish.
- **Axborot savodxonligi:** Zamonaviy axborot va texnologiyalarni tushunish va ularidan foydalana olish.
- **O‘zini o‘zi rivojlantirish:** Mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallash va o‘z ustida ishslash qobiliyatini shakllantirish.

Kompetensiya nima? Kompetensiya (lotincha “competo” so‘zidan olingan bo‘lib, “erishaman, muvofiqman, mos kelaman” ma’nolarini beradi) — kishi egallagan muayyan bilim, ko‘nikma, malakalar majmuasini anglatadi. Kompetensiya tushunchasi nisbatan yaqindan boshlab, 1960-yillarning oxiri va 1970-yillarning boshlaridan keng qo‘llanila boshlandi.

Kasbiy kompetensiya

- ❖ Pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo‘lish;
- ❖ O‘z ustida ishslash;
- ❖ Ta’lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o‘rnata olish;
- ❖ O‘quvchilar ehtiyojini anglay olishi;
O‘quvchilarda motivasiyani shakllantirish;
- ❖ AKTni bilishi;
- ❖ Ta’lim muhitiga yangilik kiritishi;
- ❖ O‘z fanini mukammal bilishi;
- ❖ Xorijiy tillardan birini bilishi.

Kompetensiyalarni shakllantirishning samarali usullari

- **O‘yin orqali o‘rganish:** Bolalarning e’tiborini jalb qiluvchi interaktiv va o‘quv o‘yinlari.
- **Loyiha asosidagi ta’lim:** Kichik loyihalarni bajarish orqali ijodiy va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish.
- **Integratsiyalashgan yondashuv:** Turli fanlarni birlashtirgan holda bolalarning dunyoqarashini kengaytirish.
- **Muloqotga asoslangan metodlar:** Bolalarni erkin muloqotga jalb qilish va o‘z fikrlarini ifoda etish imkoniyatini yaratish.
- **Ekologik tarbiya:** Tabiatni sevish va unga e’tiborli bo‘lish ko‘nikmalarini tarbiyalash.

Angliyadagi tarbiyaviy maqsad - jentelmenni tarbiyalash g‘oyasi Fransiyada ham qabul qilinib, o‘ziga xos tarzda amalga oshirildi. Bu quyidagicha ta’riflangan edi;

"Fransiyada tarbiyadan maksad - o‘zida yuksak axloqiy sifatlar, fazilatlar, ziyolilik, sog‘lom mushohadalik ruhida tarbiyalanganlikni o‘z Vatanida qabul kilingan xush xulqlik bilan uyg‘unlashtirib, takomiliga etkazgan fransuzdir"¹, Olmoniyada madaniy uyg‘onish davrida amalga oshirilgan islohotlar maktab, tarbiya maqsadini belgilashga mahsuldor ta’sir ko‘rsatib, Olmoniyaning milliy davlat sifatida rivojlanishiga katta turtki bo‘lib xizmat qildi.

G‘arbiy yevropada uyg‘onish davri ijtimoiy fanlar, xususan pedagogika fanining predmeti - tarbiya va uning mohiyati, maqsadi haqida dadil ilmiy fikrlar aytilganligi bilan ham e’tiborga molik. Bu fikrlar rang-barang bo‘lib, tarbiya fonemonining turli qirralarini yoritishga xizmat qiladi.

G‘arbiy Ovrupo davlatlari - milliy davlat sifatida shakllanib bo‘lgan edilar; ikkinchidan, G‘arbiy Ovrupo millatlari o‘z davlatlarida milliyliklariga xavf soluvchi, zarar etkazuvchi har qanday tashqi ta’sirdan holi edilar; uchinchidan, milliy g‘ururni, tuyg‘uni so‘ndiruvchi milliy mustamlakalik azobini boshdan kechirmagan edilar. Ana shuning uchun ham milliylikni tiklash sobiq mustamlaka mamlakatlarning dastlabki ma’naviy ehtiyojiga aylanishi tabiiydir. Bu ehtiyoj er yuzidagi sobiq mustamlakachi mamlakatlarga emas, balki mustamlaka - "erli" xalqlarga xos bo‘lganligi ana shu qonuniyatning dalilidir.

Afrikancha tarbiya. Maqsadi: yosh avlodni Afrika jamiyatida va Afrika sharoitida yashashga tayyorlash. Xalq donishmandligi ma’naviy, madaniy tajribasini avloddan-avlodga etkazib, afrikaliklarning (mustamlakalik darida) xo‘rlangan qadr-qimmatini, milliy g‘ururni saqlab qolib, tiklashga xizmat qildi va mustaqillik uchun kurashga tayyorladi. Afrikalik har bir bola – o‘z qishlog‘ining umumiyligi ma’naviy farzandi deb idrok qilinadi. Bola 6-7 yoshga kirguncha uning tarbiyasi bilan ona, 7 yoshdan oshgach, o‘g‘il bolani otasi yoki tog‘asi, 10-11 yoshdan o‘g‘il-qizlar kasbga, 15-16 yoshdan oila qurishga tayyorlay boshlanadi. Habashiston, Gvineya, Tanzaniya, Senegal mamlakatlaridagi milliy uyg‘onish, ta’lim va tarbiyani milliy asosga qurishda qarama-qarshiliklarga ham duch kelishdi. Bu qarama-qarshiliklardan biri – tafakkuri

fransuzlashgan mahalliy milliy nigilistlar. Vatan istiqboliga befarq, ovrupotsentrizm tarafdarlarining milliy uyg'onishga qarshi turishlari tufayli sodir bo'ldi. Bu haqda Niger Prezidenti Bubu Ama 1968 yili "qora rangli fransuzlar"dan ranjib, "milliy madaniyatimizning qora tanli fransuzlar tomonidan xo'rلانishi va rad etilishi bizning o'zligimizdan uyalishimizga olib keldi", - degan edi.

Yapon milliy tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan ayrimlari:

- milliy birlik, yaponlarning jamoa, urug' kollektivchilligi umummilliy darajada namoyon bo'ladi: kechagina bir-biriga raqobat qiluvchilar millat manfaatiga dahldor vaziyatda birdaniga bir-birini qo'llay boshlaydilar;
- jamoa ming ko'zli devor bo'lib, har bir yaponning hatti-harakatini kuzatadi, uning hatti-harakatidagi axloqiy qadriyatlarning sofligini nazorat qiladi... Yapon jamiyati axloqiyligining siri ana shunda, deb hisoblashadi;
- rostgo'ylik, bag'rikenglik sifatlarini tarbiyalashga favqulotda ahamiyat beriladi;
- ierogliflar ataylab maydalab yoziladi. Ularni qiynalib yodlash bolada ko'z qobiliyati(ko'rganini esda saqlash)ni rivojlantiradi. Ierogliflarni ko'p martalab, diqqat bilan ko'chirish o'quvchilarda tirishqoqlik, mehnatsevarlikni tarbiyalaydi;
- maktablarda "yapon axloqi" darsi maxsus o'tiladi. Bolalar asta-sekin xuddi kattalardek salomlashishga, hatti-harakatlar qilishga mashq qildirila boriladi. Agarda biror o'quvchi milliy axloq qoidalarini buzsa, bolalar uni "g'alati yapon" deyishadi. Keyinchalik ham u o'z xatolarini tuzatmasa, "begona" nomini oladi va bolalar undan uzoqlashadi;
- o'smirlik – yapon bolalari uchun eng qiyin – cheksiz dars tayyorlash va kelajak haqida qayg'urish yo'llaridir;
- bolalarning aksariyati ikki mакtabda o'qishadi. Birinchi – asosiy, ikkinchi, Dzyuki – tushdan keyingi darsda o'tilgan mavzuni takrorlash va qo'shimcha materiallar bilan mustahkamlashga xizmat qiladi.

oilada qiz bola tarbiyasi bilan ko‘proq ona, o‘g‘il bola tarbiyasi bilan ko‘proq ota shug‘ullanadi va h.k.

80-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab, pedagogikaga “umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash” tushunchasi kirib keldi. Shuni qayd qilish kerakki, umuminsoniy qadriyatlarni tushunishda, talqin qilishda ziddiyatlar bor edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Daminov M.I p.f.n., dots. Sifatli ta’lim va fanlararo integratsiyaning ahamiyati” «TA’LIM TRANSFORMATSIYASI” 2023y
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28 - fevraldaggi PF-27-sonli Farmoni.
3. Karimova Madina Mo’mjon qizi “Ta’lim jarayonida yangi metod va usullardan foydalanish” Ta’lim psixologiyasi 2024